

## OILAVIY JANJALLARNI VUJUDGA KELISH SABABLAR, MUOMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI

Yaxyobek Kamolov Jo'ramirza o'g'li

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 2-bosqich kursanti

+998 93 495 40 81

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7922783>

**Аннотация:** В данной статье приводится конкретная статистика семейной преступности и криминологическая характеристика данного вида преступности, а также качественный и количественный уровни.

**Ключевые слова:** Семейные споры, судебная практика, институт семьи, статистика, расторжение брака, решения пленума, судебная практика

**Annotation:** This article details specific statistics on family crime and the criminological description of this type of crime, as well as qualitative and quantitative levels.

**Key words:** Family disputes, court practice, family institution, statistics, divorce, plenum decisions, court practice

**Annotatsiya:** Ushbu maqola oilaviy jinoyatlar haqidagi aniq statistik ma'lumotlar va ushbu turdagi jinoyatlarning kriminologik tavsifi hamda sifat va miqdor darajalari haqida batafsil so'z boradi

**Kalit so'zlar:** Oilaviy janjallar, sudlar amaliyoti, oila instituti, statistika, nikohdan ajratish, plenum qarorlari, sud amaliyoti

Bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan globallashuv davriga kelib O'zbekiston o'z istiqboli va kelajagini oilani rivojlantirish, uni e'zozlashda, deb bilayotgani an'anaviy qadriyatlarimizni yanada boyitgan holda zamonaviy, namunali va farovon oilani barpo etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Xususan, bu borada aniq statistik ma'lumotlarga e'tibor bersak: yurtimizda 1 yanvardan 1 iyungacha 20 798 ta oila rasman ajrashdi. Bu – o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4700 taga ko'p. 2022 yilning 1 iyun holatiga FHDY organlari tomonidan respublika bo'yicha 20 798 ta ajrim qayd etilgan. Adliya vazirligi xabariga ko'ra, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 4 700 taga ko'paygan. Xususan, sudlarning tegishli qarorlariga asosan - 14 986 ta, o'zaro rozilik asosida - 5 812 ta ajrim holati qayd etildi.

Hududlar kesimida ajrimlar bo'yicha Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlari va Toshkent shaharda eng yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi.

Bunda:

- Samarqand viloyati – 368 ta;
- Farg'ona viloyati – 793 ta;
- Qashqadaryo viloyati – 368 ta;
- Andijon viloyati – 800 ta;
- Surxondaryo viloyati – 353 ta;
- Namangan viloyati – 706 ta;
- Toshkent viloyati – 693 ta;
- Toshkent shahri – 732 ta;
- Buxoro viloyati – 184 ta;
- Jizzax viloyati – 248 ta;
- Qoraqalpog'iston R. – 76 ta;

- Xorazm viloyati – 176 ta;
- Navoiy viloyati – 109 ta;
- Sirdaryo viloyati – 206 ta ajrim kuzatildi.
- Ajrimlar soni ko'p bo'lgan hududlar ma'lum qilindi
- 2021 yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida eng ko'p ajrimlar soni Toshkent shahrida qayd qilingan. Respublika bo'yicha ajrimlar soni joriy yilning dastlabki 3 oyi davomida 15,4 foizga ko'paygan. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yilning yanvar-mart oylarida respublika bo'yicha 9213ta ajrim holati qayd etilgan. Taqqoslash uchun, bu ko'rsatkich 2020 yilning yanvar-mart oylarida 7,8 mingtani tashkil etgan. Ko'rinib turibdiki, respublika bo'yicha ajrimlar soni joriy yilning dastlabki 3 oyi davomida 15,4 foizga ko'paygan. Shuningdek, 2021 yilning yanvar-mart oylarida respublika bo'yicha 59 ming 754ta nikoh holati qayd etilgan. Bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10 ming 243taga ko'p. Yanvar-mart oylarida hududlar kesimida eng ko'p ajrimlar soni Toshkent shahri (1 331ta), Farg'ona (999ta), Andijon (995ta) va Toshkent (946ta) viloyatlarida kuzatilgan. 2021 yil yanvar-mart oylarida eng kam nikohdan ajrashish holatlari Qoraqalpog'iston Respublikasi (288ta), Navoiy (289ta), Sirdaryo (298ta) va Jizzax (337ta) viloyatlarida qayd qilingan. Ajrimlar oqibatida jamiyatga yetadigan zararlar haqida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ajrashgan ayollarning aksariyatida quyidagi muammolar yuzaga kelgan:

Birinchiidan, turar joy muammosi paydo bo'ladi. Bola bilan ota-onasinikida yashash qiyin. Ijara narxi esa qimmat. To'langan aliment bu pulning yarmini ham qoplamaydi.

Ikkinchiidan, farzandlar ota mehriga zor bo'lib o'sadi. So'rovnomada qatnashgan 51 nafar ayolning 44 nafarida jami 70 nafar bola bor va ulardan 99 foizi otasi bilan umuman ko'rishmasligi ma'lum bo'lgan. Birgina 2019 yilda 31 389ta oila ajrashgani hisobga olinsa, bunday bolalar sonini taxmin qilish mumkin. Ma'lum bo'lishicha, erkaklar nafaqat boladan xabar olmaydi, balki turli bahonalar bilan aliment to'lamaslikka harakat qiladi.

Uchinchiidan, ajrashgan ayollarga jamiyatda noto'g'ri ko'z bilan qaraladi: intim munosabatlar taklif etiladi, ijaraga qo'yishni xohlashmaydi.

Respondentlar ajrimlarga sobiq turmush o'rtog'ining ro'zg'or boshqarishda mas'uliyatsizligi, mustaqil fikri yo'qligi, oilaga boshqalarning aralashuvi (qaynana, qaynsingillar), erkakning yomon illatlarga ruju qo'ygani, oilada ayolga qulday munosabatda bo'lishlari, xiyonat kabi omillarni sabab qilib keltirgan.

Ma'lumot uchun, 2020 yilda respublikada 28,2 mingta nikohdan ajralish holati qayd etilgan. O'tgan yil davomida eng ko'p oilaviy ajrimlar Toshkent shahri, Sirdaryo, Andijon va Toshkent viloyatlarida qayd etilgan. Ta'kidlanishicha, 2020 yilda kuzatilgan jami oilaviy ajrimlarning yarmida er-xotin o'rtasida farzand bo'lmagan, ajrashgan oilalarning 29,3 foizida bitta farzand hamda 20,6 foizida ikki va undan ortiq farzand bo'lgan.

Senatning to'qqizinchi yalpi majlisida nikohlanuvchi yoshlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish samaradorligini oshirish to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga parlament so'rovi yuborilgani haqida ma'lumot berilgandi.

Shuningdek, 2020 yil 9 dekabr kuni Senat raisi Tanzila Norboyeva boshchiligida oilaviy ajrimlarning oldini olish, farzand ta'lim-tarbiyasida ota-ona mas'uliyatini oshirish, aliment tayinlash va to'lash tizimini takomillashtirish masalalari tahlil qilingandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan so'zlagan nutqida «Qani edi yurtimizda ajrim degan noxush holatning o'zi bo'lmasa, oilalar parokanda,

bolalar tirik yetim bo'lib, sarson-sargardon bo'lmasa...», deb yoshlarni turmush masalasiga jiddiy qarashga chaqirgan edi.

Yuqoridagi faktlarga tayanib biz yana bitta savolga javob topishimiz darkor: Oilaviy ajrimlar soni keskin oshishiga qanday omillar sabab bo'lmoqda?

Albatta, kundalik hayotimizda oilaviy ajrimlarga sabab bo'layotgan turli omillar mavjud. Masalan, ajrimlarning eng muhim sabablardan biri, bu – ikkala tomon bir-birlarini yaxshi bilmay oila qurishidir yoki kelin-kuyovning turmushga tayyor emasligi, mehnat qilishga o'rganmaganligi, sabr va iroda bilan yengish mumkin bo'lgan qiyinchiliklarga toqat qilmasligidir.

Bugungi kunda mahalla fuqarolar yig'inlaridagi notinch va muammoli oilalar ro'yxati shakllantirilgan. Er-xotin, qaynona-kelin, qaynona-kuyov va oilaning boshqa a'zolari o'rtasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish maqsadida har bir taraf bilan sudga qadar mahalla oqsoqollari va faollari alohida suhbat olib borib, muammolarning tub mohiyati aniqlanmoqda. Notinch oilalar murosaga keltirilib, ularga mahalladagi namunali oilalarda murabbiylar birlashtirilmoqda. Biroq, afsuski, oilaviy ajrimlarning soni oxirgi vaqtlarda keskin oshishiga boshqa omillar ham ta'sir qilmoqda.

Chunonchi: oilani saqlab qolish uchun qilingan barcha harakatlar natija bermaganidan so'ng, er yoki xotin sudga nikohdan ajratish haqidagi da'vo ariza bilan murojaat qilmoqda.

2018 yil 3 yanvarda qabul qilingan «Ayrim davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi, shuningdek, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonunga binoan Oila kodeksining 40-moddasi «Sud er-xotining yashash uchun muhlat tayinlab, ishning ko'rilishini keyinga qoldirgan taqdirda, er-xotinning birga yashash joyidagi fuqarolar yig'inining yarashtirish komissiyasini, agar ular birga yashamayotgan bo'lsa, har birining yashash joyidagi fuqarolar yig'inining yarashtirish komissiyasini er-xotinni yarashtirish bo'yicha tegishli choralar ko'rish uchun uch kundan kechiktirmasdan yozma ravishda xabardor qilishi kerak», degan mazmundagi uchinchi qism bilan to'ldirildi. Bu to'ldirish oilaviy ajrimlarning oldini olishga, ayniqsa, yosh onalarning huquqlarini ta'minlashga, farzandlarning kelajagi uchun xizmat qiladi.

Birgina misol, da'vogari N.J. sudga da'vo ariza bilan murojaat qilib, A.N. bilan qonuniy nikohdan o'tib turmush qurgani, birgalikdagi turmushlaridan o'rtalarida bir nafar farzand borligini, oilaviy murosasizlik tufayli 2014 yildan buyon o'zaro ajrashib ketgani, javobgar bilan o'rtalaridagi qonuniy nikohdan ajratib berishni so'ragan.

Sud taraflarga yarashtirish uchun 6 oy muhlat berish yuzasidan ajrim chiqardi. Shu bilan birga, oilani tiklash choralarini ko'rish uchun ajrim nusxasi taraflar istiqomat qilayotgan mahalla fuqarolar yig'ini va oila va xotin qizlar bo'limiga yuborildi.

Xalqimiz bolajon va oilaviy qadriyatlarini hurmat qiladi. Ikki yoshning boshini qovushtirib, bir oilani barpo qilish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Buning uchun ota-onalar, yoshi ulug'lar ko'pdan ko'p maslahat va sa'y-harakatlar qilishadi. Biroq, yosh er-xotin o'rtasidagi arziyasiz gap-so'zlar va asossiz vajlar tufayli guldek oilaning barbod bo'lishi, farzandlarning yetim qolishi achinarli hol.

Shuning uchun ota-onalar, tegishli mahalla fuqarolar yig'inlari vakillari, oila va xotin qizlar bo'limlari bu masalaga hamisha mas'uliyat bilan yondashsalar, muqaddas oila qo'rg'oni hech qachon darz ketmaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Lex.uz (normativ hujjatlarbazasi)
- 2.www.google.com (butun jahon qidiruv tizimi)
- 3.[https://kun.uz/Oilaviy nizolar bo'yicha kunlik dayjestlar](https://kun.uz/Oilaviy_nizolar_bo'yicha_kunlik_dayjestlar)
- 4.Oliy sud Plenumining 2011 yil 20 iyuldagi "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorida
- 5.2022-yil 27 iyun oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"
- 6.Muhtarovna, Aliyeva Dilafuz. "MODERN PEDAGOGICAL INNOVATIONS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES FOR DEFECTOLOGISTS." Euro-Asia Conferences. Vol. 3. No. 1. 2021.
- 7.Dilafuz, Aliyeva. "THE PRACTICE-ORIENTED APPROACH TO LEARNING IN EUROPE." Conferencea (2023): 79-80.
- 8.Dilafuz, Alieva. "PROBLEMS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO NON-PHILOLOGY STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 54-56.
- 9.Dilafuz, Alieva. "THE MECHANISM OF TRAINING FUTURE TEACHERS OF PEDAGOGICAL UNIVERSITIES BASED ON MODERN APPROACHES." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 236-241.

INNOVATIVE  
ACADEMY